INGLIZ ADABIYOTIDA "SUV" BILAN BOG'LIQ LISONIY OLAM MANZARALARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR
THE DESCRIPTION OF THE WORLDS WHICH ARE RELATED TO "WATER" IN ENGLISH LITERATURE

Haydarova Umidaxon
Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi
Dumachova Ozoda
Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi

Annotation. This article describes the metaphors that are utilized in English literature and analyze their semantic meanings. This work also provides some information about Benjamin Franklin, thesis of metaphors and investigates some data in "Poor Richard's almanack".

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz adabiyotida "suv" bilan bog'liq metaforalarning qo'llanishi, ularning o'zaro munosabatlari va metaforaviy fikrlashdagi madaniy jihatlar haqida to'xtalib o'tamiz.

Keywords. Benjamin Franklin, water, metaphor, "Poor Richard's almanack".

1. Kirish.

Benjamin Franklin 1706-yil, 6-yanvar Bostonda tavallud topgan bo'lib, u Josef Franklinning o'n beshinchi farzandi edi. Otasining biznesi unchalik rivojlanmagan bo'lsa-da, Franklin oilasi juda ham kamtarona sharoitni shakllantirgan edi. Bola sifatida Benjamin kitob o'qish va bilim olishga chanqoq edi, ikki yil mobaynida otasi uni maktabga jo'nata olgan. Bu vaqt davomida u ajoyib qobiliyatini ko'rsatdi. Siyosatchi yozuvchining dastlabki o'qigan kitobi Bunyanning "Pilgrim's progress" bo'lib, bu asar savdo masalalari hamda oldi-berdi jarayonlari haqida edi. Benjaminning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini ko'rib, yumshoq ko'ngilli Boston meri unga o'zining shaxsiy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat berdi. Yozuvchi faqat o'zining ta'limi uchun foydali kitoblarni o'qidi va bu kitoblar uning kelajakda mohir siyosatchi, bilimdon yo'lboshchi va yozuvchi bo'lib yetishishi uchun tamal toshini qo'ydi. Maktabni tashlaganidan so'ng, akasi Jamesga bosmaxona savdosida ko'maklashdi. Franklinning ish haqi juda ham kam bo'lib, u gazeta qog'ozlariga yozuvlarni kiritar va tartibga keltirar edi.

2. Metafora va madaniyat tushunchasi.

"Metaphor" so'zi grekcha "metaphora" so'zidan olingan bo'lib, "ko'chirish" degan ma'noni ifodalaydi. Shu sababli ham, metafora turli xil o'zgarishlarning transportatsiyasi(metaphor stands for conveyance of some kind of change)[54] deyiladi.

[54] Fahad al Janah, "A comparative study of metaphor " Indiana university of Pennsylvania, 2007

Adabiy jihatdan qaralganda metafora ikki turli xil narsalarning bir-biriga o'xshatilishidir, ya'ni avvalgi obyekt keyingisiga, yoinki aksi bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda metaforalar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar nafaqat adabiyot sohasida qo'llanuvchi metaforalar tadqiqiga bag'ishlanmoqda, balki boshqa sohalarda ham o'rganilmoqda. Masalan, metaforalarni biznesda qo'llanilishiga doir tadqiqotlar "marketing myopia"(marketing miyopi) metaforasiga alohida urg'u berishadi. Ushbu metafora Harvard biznes kollejidan bo'lgan Levit Teodor tomonidan ilk bor 1960-yilda qo'llangan. Bu metaforada marketing bilan ko'z ko'rish o'tkirligining muqoyasasini yaqqol anglash mumkin. Bu kabi tildagi obrazli ifodalanish metaforalar inson ongi va tushunishi bilan bog'liqdir.

Metaforalar qadimgi davrdan qo'llanib kelgan obrazli tilning birligidir. Aristotel o'z asarlarida metaforaga quyidagicha ta'rif beradi: "the greatest thing, by far, is to be a master of metaphor. It is the one thing that cannot be learnt; and it is also a sign of genius…" (metaforani qo'llash san'atini o'rganish bu eng yuqori maqomdir. Lekin uni kimdandir o'rganish mumkin emas, va metaforalar daholikning belgisidir) (Kittay, 1989, p. 1). Yoki mashhur grek dostoni "Gilgamish" dostonida ham metaforalar qo'llanganini ko'rish mumkin (Wikipedia). 1989-yil Jorj Lakoff va Mark Turnerlar "More than cool reason" asarida metaforaning she'riyatdagi ahamiyatini tadqiq qilishadi va ritorika hamda adabiyotda metaforalarning har doim va keng ko'lamli ishlatilishini aniqlashadi. Lekin ikki olim, darhaqiqat metafora adabiyotning eng asosiy unsure, ammo metaforalar inson ongining mahsuli bo'lgani bois, u kundalik hayotda ham ko'p qo'llaniladi. Bu qarash tilshunoslikda metaforaga nisbatan yangi yo'nalish va tadqiqotlarni belgilab berdi.

Lakoff va Jonson(1980) metaforaga bo'lgan qiziqishni yangiladi. Ularning mashhur asari "Metaphors we live by" metaforaning konseptual va kognitiv ong bilan bog'liqligini isbotladi.

Metafora hozirda keng tarqalgan hayot tajribalari va konseptual asoslarni ifodalovchi sifatida tan olingan bo'lishiga qaramay, ko'plab olimlar hali ham metaforalar tadqiqotlariga yetarlicha e'tibor berilmayotganini aytishadi.

Shunisi aniqki, tadqiqotlar orasida madaniyat va metaforaning o'zaro bog'liqligini isbotlovchi hamda konseptual asos bilan bog'liq aniq, izchil tadqiqotlar kam sonni tashkil etadi.

Borden (1982), Schaff (1973), Galtung va Nishimura (1983), Kuroda va Suzuki (1989) kabi olimlar tilga asoslanib, madaniyatlararo aloqalarga doir tadqiqotlarga urg'u berish lozimligini aytib o'tishgan. Bu faraz til milliy madaniyatni o'zida mujassamlashtira olishiga yana bir dalildir. Metaforalar tilda doimiy mavjud unsurdir va bu metafora madaniyatning ko'zgusi ekanini tushuntirib bera oladi.

Corradi Fiumara(1995)ga ko'ra, madaniyat metaforik til orqali aloqa qilish namunasidir, "reliance on the literalness of cultural concepts may…conceal the danger of devaluing … inner experiences…" (p. 2).

3. "Bechora Richard" almanagi va "suv" metaforasi

Bibliya bilan bir xil darajada ommaviy ravishda o'qilgan asar turlaridan biri almanaklardir. Bu turdagi kitoblarda bolalar uchun qiziqarli ertaklar, ob-havo ma'lumotlari, she'r va maslahatlar, mashhur hodisalar hamda shu turdagi foydali ma'lumotlar jamlangan edi. Mashhur almanaklardan biri Benjamin Franklinning "Kambag'al Richard" asari bo'lib, u 1732-yilda chop etilgan. Bugungi kun jamiyati undagi juda ham mashhur maslahatlar uchun minnatdor deb yozadi ayrim yozuvchilar, sababi bu almanakda "Yashash uchun oziqlan, yeyish uchun yashama", "itlar bilan yotgan, burgalar bilan uyg'onadi", "Kichik zarbalar katta emanlarni yiqitadi", yoki "Erta yot, erta tur, bu kishini sog'lom, boy va dono qiladi" kabi mashhur va dono maslahatlarni uchratish mumkin. Asar xalqchil tarzda yozilgan bo'lib, imkon qadar tilning majoziy birliklaridan foydalanishga harakat qilingan va bu orqali oson tushunilish hamda o'qilishiga erisha olgan. Masalan:

1. When the well's dry, we know the worth of water.

"Quduq qurisa, suvning qadri bilinadi"

Ushbu hikmatga ko'ra suv turli xil ma'nolarni ifodalovchi metafora o'rnida kelganini anglash qiyin bo'lmasa kerak. "suv" hayot, yaxshilik, shaxsda mavjud biror narsaning o'rnida qo'llangan va jonli tasvir usulidan foydalanilgan.

2. *Drink does not drown care, but waters it, and makes it grow faster.*

"Ichimlik cho'kmaydi, aksincha uni sug'oradi va tezroq o'sishiga ko'maklashadi"

Bu almanakni turli xil tadqiqotchilar bir necha ma'nolarda izohlaydilar ya'ni "suv" metaforasi bilim, ozuqa va tajriba kabi ma'nolarda qo'llanganini aytib o'tishadi.

Xulosa.

Mashhur yozuvchi, siyosatshunos va omadli tadbirkor Benjamin Franklin Amerika tarixida o'chmas iz qoldirgan ijodkordir. Uning siyosiy ishlari bilan birga, adabiy merosi ham jahon adabiyot ixlosmandlari tomonidan qadrlanadi. Qadimgi davrlardan adabiyotning asosiy unsuri hisoblangan metaforalar Johnson va Lakoff(1980) nazariyasidan so'ng tadqiqotchilar e'tiborini qayta o'ziga qaratdi va unga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Benjamin Franklinning asarida qo'llangan "suv" bilan bog'liq metaforalar nazariy jihatdan tahlil qilinganda, u asosan tabiatdagi mavjud muhim to'rt unsurni tasvirlab kelishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. H. Yamada "KEIYOUSHINO TSUKAI KATA", Kabushiki gaisha, 2009

2. M. Nishio "Nihongono bunpo", Kokusaikouryukikin, 2011

3. Yunusova, Z., & Haydarova, U. (2022). The Semantics and Use of the Verb „Open "in Different Spheres of Uzbek Language. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *2*(5), 121-123.

4. Haydarova, U., & Mo'minova, G. (2022). KOGNITIV LINGVISTIKADA METAFORA MASALASI VA ULARNING YAPON MUMTOZ MANBALARIDA IFODALANISHI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(6), 59-63.

5. Sotvoldiyeva, H., & Haydarova, U. (2023). YOSHIMOTO BANANA ASARLARIDA XURSANDCHILIK MA'NOSINI IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI. *Interpretation and researches*, *2*(3).

6. Umida, H. (2022). INGIZ ADABIYOTIDA SUV KONSEPTI (UILYAM SHEKSPIR ASARLARI MISOLIDA). *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, (1), 26-29.